SEHRLI ERTAKLARNING MORFOLOGIK TUZILISHI VA FUNKSIONAL XUSUSIYATLARI (“EMİR YEMEN” TURK XALQ SEHRLI ERTAGI MISOLIDA)

Saydullayeva Aziza Ubaydullayevna,
Alisher Navoiy nomidagi ToshDO‘TAU
tayanch doktaranti
azize.uz24@gmail.com

Annotatsiya
Ushbu maqolada turk xalq sehrli ertaklaridan biri bo‘lgan “Emir Yemen” ertagi rus folklorshunosi Vladimir Proppning morfologik nazariyasi asosida tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida ertak syujetidagi voqealar ketma-ketligi, obrazlar tizimi va funksional tuzilma o‘rganilib, Propp tomonidan aniqlangan funksiyalarning ertakdagi namoyon bo‘lish shakllari aniqlanadi.
Kalit so‘zlar: *turk xalq ertaklari, Emir Yemen, Vladimir Propp, ertak morfologiyasi, funksional tahlil, syujet, obrazlar tizimi, poetika.*

KIRISH

Xalq ertaklari xalq og‘zaki ijodining eng qadimiy va keng tarqalgan janrlaridan biri bo‘lib, unda xalqning dunyoqarashi, orzu-intilishlari, axloqiy qarashlari hamda estetik ideallari badiiy shaklda aks etadi. Ertaklar syujeti, obrazlar tizimi va poetik xususiyatlariga ko‘ra hayotiy, hayvonlar haqidagi hamda sehrli ertaklarga bo‘linadi. Shular orasida sehrli ertaklar o‘zining fantastik voqealari, mo‘jizaviy obrazlari, sehrli buyumlari va qahramonning sinovlardan o‘tib g‘alabaga erishishi bilan ajralib turadi. Ushbu ertaklarda yaxshilik va yovuzlik kurashi markaziy o‘rin egallab, qahramon ko‘pincha sehrli yordamchilar ko‘magida maqsadiga erishadi. Sehrli ertaklarni strukturaviy jihatdan o‘rganishda rus folklorshunosi Vladimir Proppning morfologik nazariyasi muhim o‘rin tutadi. Olim 1928-yilda nashr etilgan “Morfologiya skazki” asarida rus sehrli ertaklarini tahlil qilib, ularning syujeti turlicha bo‘lsa-da, ichki tuzilishi umumiy va takrorlanuvchi funksiyalardan iborat ekanligini isbotlagan. Propp ertakdagi obrazlar emas, balki obrazlarning bajarayotgan funksiyalarini asosiy tahlil birligi sifatida oladi. Bu holatni Vladimir Propp quyidagicha izohlaydi: “Ertak qahramonlarining nomlari va atributlari o‘zgaradi, ammo ularning funksiyalari o‘zgarmaydi” [1, B.23]. Uning fikricha, barcha sehrli ertaklar yagona strukturaviy modelga mansub bo‘lib, ularning asosida umumiy funksional o‘zak yotadi. Propp rus xalq sehrli ertaklarida 31 ta funksiyani ajratib ko‘rsatadi hamda bu funksiyalar asosan yetti turdagi harakatlanuvchi personajlar tomonidan amalga oshirilishini ta’kidlaydi. Garchi bunday tasnif material hajmining cheklanganligi sababli ayrim munozaralarga sabab bo‘lsa-da, u ertaklarning strukturaviy va funksional tahlilida o‘zining ilmiy ahamiyatini saqlab qolgan.

Turk xalq ertaklari tarkibiga kiruvchi “Emir Yemen” ertagi [2, B.473] ham sehrli ertaklarga xos bo‘lgan mo‘jizaviy tug‘ilish, taqiq va uning buzilishi, qahramonning izlanish yo‘liga chiqishi, sehrli yordamchilar, murakkab sinovlar va baxtli yakun kabi

motivlarni o‘zida mujassamlashtirgan. Mazkur maqolada ertakning syujet qurilishi va poetik xususiyatlari Vladimir Proppning funksional tahlil metodi asosida o‘rganiladi.

“Emir Yemen” ertagining qisqacha mazmuni. Farzandsiz bir ayol kunlardan bir kun ilonlarni ko‘rib, “Hech bo‘lmasa ilon kabi bo‘lsa ham farzandim bo‘lsin”, deb niyat qiladi. Oradan vaqt o‘tib, u ilon qiyofasidagi o‘g‘il farzandni dunyoga keltiradi. Bola ulg‘aygach, onasidan uni uylantirishni so‘raydi. Dastlabki ikki kelinni ilon holida chaqib o‘ldiradi, ammo uchinchi qiz – Fatma undan qo‘rqmaydi. Shunda yigit aslida ilon emas, balki Emir Yemen ismli sehrli yigit ekanini Fatmaga aytadi va bu sirni hech kimga oshkor qilmaslikni tayinlaydi. Bir kuni Fatma dugonalarining gapiga uchib, uning sirini aytib qo‘yadi. Shundan so‘ng Emir Yemen g‘oyib bo‘ladi. Ketishidan oldin u Fatmaga temir etik va temir qalpoq kiyib, uni topish maqsadida uzoq yo‘lga chiqishini aytadi. Fatma sevgilisini topish uchun mashaqqatli safarga otlanadi. Yo‘lda u oltin, kumush va mis qal’alarga duch keladi. Nihoyat Emir Yemenning izini topib, uning devlar mamlakatida ekanini biladi. Bu yerda dev Fatmani turli og‘ir sinovlarga duchor qiladi: sehrli “def”(doiraga o‘xshash musiqa asbobi) olib kelish, qirq xil ipak yig‘ish, tog‘lardan qush patlari keltirish kabi vazifalarni bajarishga majbur etadi. Fatma Emir Yemenning maslahati va aql-zakovati yordamida barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tadi. Dev Fatma va Emir Yemenning bir-biriga sadoqatini ko‘rib, ularga zarar yetkazmoqchi bo‘ladi. Ammo ular turli sehrli qiyofalarga kirib qochadilar. Oxir-oqibat Emir Yemen ilon qiyofasiga kirib, devlarni halok qiladi. Shundan so‘ng Fatma va Emir Yemen o‘z yurtlariga qaytib, baxtli hayot kechiradilar va murod-maqsadlariga yetadilar

“Emir Yemen” ertagining funksional tahlili. Boshlang‘ich holat (α). Ertak boshida farzandsiz ayol obrazi beriladi. Bu holat ertakdagi asosiy yetishmovchilikni yuzaga keltiradi: ayolning farzand ko‘rish istagi syujetni harakatga keltiruvchi boshlang‘ich motiv vazifasini bajaradi.

1-funksiya: Uzoqlashish (β). Ayolning ilonlar bilan bog‘liq orzusi va keyinchalik ilon shaklidagi farzand tug‘ilishi qahramonning oddiy insonlar dunyosidan ajralib turishini ko‘rsatadi. Emir Yemenning keyinchalik yashirin tabiati ham shu bosqichda tayyorlanadi.

2-funksiya: Taqiq (γ). Emir Yemen Fatmaga o‘z sirini aytadi va uni boshqalarga oshkor qilmaslikni buyuradi: “Bu sirni biror kishiga aytsang, men g‘oyib bo‘laman.” Bu ertakdagi asosiy taqiq funksiyasidir.

3-funksiya: Taqiqning buzilishi (δ). Fatma dugonalarining ta’nasi va bosimi ostida Emir Yemenning sirini oshkor qiladi. Shu bilan taqiq buziladi va syujetning ikkinchi bosqichi boshlanadi.

4-funksiya: Kötülük yoki eksiklik (A). Sir oshkor bo‘lgach Emir Yemen g‘oyib bo‘ladi. Natijada Fatma uchun yangi yetishmovchilik yuzaga keladi: u sevgilisidan ayriladi va uni qayta topishi kerak bo‘ladi.

5-funksiya: Vositachilik (B). Emir Yemen Fatmaga: “Temir etik va temir qalpoq kiyib meni izlaysan,” deya yo‘l ko‘rsatadi. Shu orqali qahramon safarga undaladi.

6-funksiya: Qarshi harakatning boshlanishi (C). Fatma Emir Yemenni izlashga qaror qiladi va safarga tayyorgarlik ko‘radi.

7-funksiya: G‘oyib bo‘lish / safarga chiqish (↑). Fatma temir etik va temir qalpoq kiyib uzoq yo‘lga otlanadi. Bu bosqich qahramonning uyidan chiqib, izlovchi qahramonga aylanishini bildiradi.

8-funksiya: Donorning ilk funksiyasi (D). Oltin, kumush va mis qal’adagi qizlar Fatmaga ma’lumot beradi va uni to‘g‘ri yo‘lga yo‘naltiradi. Ular donor-homiy obrazlari sifatida qahramonni sinovdan o‘tkazadi va unga yordam beradi.

9-funksiya: Qahramonning reaksiyasi (E). Fatma sabr bilan izlanishni davom ettiradi, qal’adagi qizlarning ko‘rsatmalariga amal qiladi va Emir Yemenni topishga bo‘lgan qat’iyatini saqlab qoladi.

10-funksiya: Sehrli vositani qo‘lga kiritish (F). Mis qal’adagi qizning ko‘zasidan tushgan uzuk Fatma uchun tanish belgi vazifasini bajaradi. Shu orqali u izlayotgan kishining aynan Emir Yemen ekanligini anglaydi.

11-funksiya: Yo‘l ko‘rsatish (G). Emir Yemen Fatmaga dev topshiriqlarini qanday bajarishni birma-bir tushuntiradi. Qahramon sehrli bilim yordamida keyingi sinovlarga tayyorlanadi.

12-funksiya: Kurash (H). Fatmaning dev bilan kurashi bevosita jang shaklida emas, balki murakkab topshiriqlarni bajarish orqali amalga oshadi. Bu ertaklarda keng tarqalgan sinovli kurash modelidir.

13-funksiya: Maxsus belgi (I). Emir Yemenning uzugi qahramonni tanituvchi va uni sevgilisi bilan bog‘lovchi maxsus belgi sifatida xizmat qiladi.

14-funksiya: G‘alaba (J). Fatma dev qo‘ygan barcha sinovlardan muvaffaqiyatli o‘tadi: defni olib keladi, ipaklarni topadi va qush patlarini yig‘adi.

15-funksiya: Yetishmovchilikning bartaraf etilishi (K). Fatma Emir Yemenni topadi va ular birlashishga muvaffaq bo‘ladi. Shu bilan boshlang‘ich yetishmovchilik bartaraf etiladi.

16-funksiya: Qaytish (↓). Emir Yemen va Fatma o‘z yurtlariga qaytish uchun yo‘lga chiqadi.

17-funksiya: Ta’qib (Pr). Dev va uning yordamchilari qahramonlarni quvib keladi. Bu bosqich ertakdagi dramatik taranglikni kuchaytiradi.

18-funksiya: Qutqarilish (Rs). Qahramonlar sehrli o‘zgarishlar yordamida ta’qibdan qutuladi: ular qo‘riqchi, buloq, daraxt va ilon qiyofalariga kirib devlarni chalg‘itadi.

19-funksiya: Tanilmas holda kelish (O). Qahramonlarning turli qiyofalarga kirishi ularning vaqtincha tanilmas holga o‘tishini bildiradi.

20-funksiya: Murakkab vazifa (M). Dev tomonidan Fatmaga qo‘yilgan vazifalar Proppning “qiyin vazifa” funksiyasiga to‘liq mos keladi:

1. Defni olib kelish,
2. Qirq xil ipak topish,
3. Qush patlarini yig‘ish.

21-funksiya: Vazifaning bajarilishi (N). Fatma Emir Yemenning yordami bilan barcha murakkab topshiriqlarni bajaradi.

22-funksiya: Tan olinishi (Q). Fatmaning sadoqati va jasorati Emir Yemen tomonidan e’tirof etiladi. U haqiqiy sodiq yor sifatida tan olinadi.

23-funksiya: Fosh etish (Ex). Devning yovuz niyatlari va hiylalari ochiladi. U qahramonlarni ajratishga uringan asosiy antagonistik kuch sifatida namoyon bo‘ladi.

24-funksiya: O‘zgarish (T). Emir Yemenning ilon qiyofasidan bahodir yigit sifatida namoyon bo‘lishi ertakdagi asosiy transformatsiya motividir. Shuningdek, qahramonlarning yo‘lda turli qiyofalarga kirishi ham bu funksiyaga kiradi.

25-funksiya: Jazolash (U). Devlar ilon qiyofasidagi Emir Yemen tomonidan yo‘q qilinadi. Yovuz kuch jazolanadi va ertakdagi adolat tiklanadi.

26-funksiya: To‘y va baxtli yakun (W°). Ertak klassik formulaga ko‘ra yakunlanadi:

“Yemiş içmiş, hoş muratlarına ermişler.” (Yebdilar, ichibdilar, xush murodlariga yetibdilar.) Bu Proppning oxirgi funksiyasi – qahramonning mukofotlanishi va baxtli yakun funksiyasidir.

Ertakning funksional sxemasi:

“Emir Yemen” ertagidagi asosiy funksiyalar ketma-ketligi quyidagicha ifodalanadi:

α a β γ δ A/B C ↑ D E F G M N H J K ↓ Pr Rs T U W

“Emir Yemen” ertagi Vladimir Propp tomonidan aniqlangan funksiyalarning aksariyatini o‘zida mujassamlashtirgan klassik sehrli ertakdir. Ertakda:

1) yetishmovchilik va mo‘jizaviy tug‘ilish,
2) taqiq va uning buzilishi,
3) qahramonning safarga chiqishi,
4) donor-homiy yordami,
5) murakkab sinovlar,
6) ta’qib va qutqarilish,
7) transformatsiya va baxtli yakun

kabi funksiyalar izchil ravishda namoyon bo‘ladi.

Ertakning o‘ziga xos jihati shundaki, unda Fatma izlovchi qahramon sifatida faol rol o‘ynaydi, Emir Yemen esa bir vaqtning o‘zida mo‘jizaviy qahramon, donor-homiy va mukofot-obraz funksiyalarini bajaradi. Shu sababli “Emir Yemen” ertagi turk sehrli ertaklarining murakkab poetik va strukturaviy namunalaridan biri sifatida baholanishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. *Пропп, В.Я. Морфология сказки*. – М.: Наука, 1969. – С.168.
2. Demir, Necati. Anadolu Türk Halk Masalları - Cilt: 3 1. Baskı - Nisan 2021. S.473.
3. Turgay, Akarslan. Vladimir Propp’un Biçimbilimsel Yaklaşımı Çerçevesinde “El Bilmez Alelacaip Oyunu Masalı” Üzerine Bir İnceleme. Gaziosmanpaşa Üniversitesi Sosyal Bilimler Araştırmaları Dergisi/GOSOS (Yaz 2015) 10/1: 283-297.